

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**MARKAZIY PROYEKSIYALASHDA  
POZITSIYON VA METRIK  
MASALAR YECHISH**

**TOSHKENT 2006**

Mazkur metodik qo‘llanma 5140700-“Tasviriylar san’at va muxandislik grafikasi o‘quv rejasida belgilangan Perspektiva fanining tarkibidagi pozitsiyon va metrik masalalar yechish bo‘limiga bag‘ishlangan. Undan kunduzgi va mahsus sirtqi bo‘lim talabalari, yosh pedagoglar va mustaqil o‘rganuvchilar amaliy foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Toshkent to‘qimachilik va yengil  
sanoat instituti “Chizma geometriya  
va muhandislik grafikasi” kafedrasini  
p.f.n. dotsent

Xurboyev N.I.

Nizomiy nomidagi TDPU “Chizma  
geometriya, chizmachilik va uni  
o‘qitish metodikasi” kafedrasini  
t.f.n. professor

Ismatullayev R.Q.

Mazkur qo‘llanma Nizomiy nomidagi TDPU ning 2006 yil 26 oktabrdagi  
Ilmiy kengashida № 3-sonli qaror bilan nashrga tavsiya etilgan.

## SO‘Z BOSHI

Mamlakatimizda ta’lim sohasiga katta e’tibor berilayotgan hozirgi kunda oliv dargohlar zimmasida yuqori malakali kadrlar tayyorlab berish vazifasi turibdi. Shuning uchun chizma geometriya va chizmachilik fanlari o‘qitiladigan barcha oliv o‘quv yurtlaridagi talabalarni Davlat ta’lim standartlarida belgilangan darajada bilim, malaka va ko‘nikma bilan qurollantirish zarur.

Markaziy va parallel proeksiyalash bo‘yicha to‘laqonli bilimga ega bo‘lish uchun dastlab geometrik figuralar o‘rtasidagi pozitsion, metrik munosabatlarni tekshirish hamda tahlil qilishni o‘zlashtirish talab qilinadi.


Geometrik figuralarning o‘zaro bir biriga nisbatan egallagan vaziyatlarini tekshirishga oid masalalarga pozitsion masala deyiladi. Agar geometrik figuralar o‘rtasidagi biror, masalan, burchak, haqiqiy uzunlik, qisqa masofani o‘lchashni amalga oshiruvchi masala bo‘lsa, u holda bunday masalalar metrik masala deyiladi. Pozitsion masalalarga tekisliklarning kesishish chizig‘ini, to‘g‘ri chiziqlari tekislik bilan kesishgan nuqtasini, sirtlarning o‘zaro kesishish chiziqlarini aniqlash kabi masalalarni kiritish mumkin. Metrik masalalarga esa ikki to‘g‘ri chiziq orasidagi burchakni, ikki tekislik orasidagi burchakni, parallel to‘g‘ri chiziqlar orasidagi qisqa masofani aniqlash kabi masalalarni kirlitsa bo‘ladi.

Ushbu metodik qo‘llanmada to‘g‘ri va teskari pozitsion, metrik masalalar yechish usullari namunalar bilan keltirilgan. Undan talabalar o‘z grafik vazifalarini bajarishda amaliy foydalanaladilar. Pozitsion va metrik masalalar yechish talabaning fazoviy tasavvurini juda kengaytiradi.

Ushbu metodik qo‘llanmani tayyorlashda o‘z ilmiy fikrlari, g‘oyalari va amaliy yordamini bergen ustozim texnika fanlari nomzodi dotsent Po‘lat Odilovich Odilovga samimiy minnatdorchiligi bildiraman.

## 1 - §. PERSPEKTIVANING GEOMETRIK APPARATI

Fazoda gorizontal tekislik  $H$ , unga perpendikulyar vertikal tekislik  $K$  va  $S$  nuqta berilgan bo'lsin (1-shakl).  $S$  nuqtani – ko'rish nuqtasi,  $S$  ning  $H$  dagi asosi  $s$  ni kuzatish nuqtasi asosi,  $H$  ni narsalar tekisligi va  $K$  ni kartina tekisligi yoki qisqacha kartina deb ataymiz. Kartina tekisligining  $H$  bilan kesishuv chizig'i  $kk$  – kartinaning asosi deyiladi.  $S$  orqali gorizontal tekislik  $H_1$  ni o'tkazsak, u kartina tekisligi  $K$  ni  $hh$  to'g'ri chizig'i bo'yicha kesadi,  $hh$  ufq (gorizont) chizig'i deb ataladi.



1-shakl


Endi ko'rish nuqtasi  $S$  dan kartinaga perpendikulyar tushiramiz. U kartinani  $P$  nuqtada kesadi. Bu  $P$  nuqta kartinaning bosh nuqtasi deyilib, undan  $H$  tekislikka parallel bo'lib o'tgan chiziq  $hh$  – ufq chizig'i deyiladi. Bosh nuqta  $P$  ning narsalar tekisligidagi proyeksiyasi  $p$  – esa bosh nuqtaning asosi deyiladi.  $SP$  – bosh masofa deb ataladi.  $S$  orqali kartinaga  $45^\circ$  burchak ostida chap va o'ng yo'nalishda gorizontal to'g'ri chiziqlar o'tkazilib, ularning kartina bilan kesishuv nuqtalarini  $D_1$  va  $D_2$  orqali belgilaymiz.  $PD_1=PD_2=SP$  bo'ladi. Shuning uchun ham  $D_1, D_2$  nuqtalar distansion nuqtalar yoki bosh masofa nuqtalari deb ataladi.  $Ss$  orqali  $K$  ga parallel holda o'tkazilgan  $N$  tekislik neytral tekislik deyiladi.  $N$  va  $K$  tekisliklar fazoni uch qismga

ajratadi. Kuzatuvchiga nisbatan  $K$  ning orqasida joylashgan fazo – narsalar fazosi,  $N$  bilan  $K$  ning orasidagi fazo – oraliq fazo va kuzatuvchining orqasida, ya’ni  $N$  ning orqasida joylashgan fazo – mavhum fazo deb ataladi.

Narsalar fazosida  $A$  nuqta va uning  $H$  dagi asosi  $A_0$  berilgan bo‘lsin.  $A$  ning  $K$  dagi perspektiv tasvirini yasash uchun uni ko‘rish nuqtasi  $S$  bilan to‘g‘ri chiziq orqali birlashtiramiz. Proyeksiyalovchi nur  $SA$  kartina bilan kesishib,  $A$  ning kartinadagi markaziy proyeksiyasini, ya’ni perspektivasini hosil qiladi.  $SA$  ning  $K$  bilan kesishuv nuqtasini topish uchun  $SAA_0$  va  $As$  orqali vertikal tekislik o‘tkazamiz. U  $K$  bilan  $A'_{0k}$  dan o‘tuvchi vertikal chiziq bo‘yicha kesishadi. Bu chiziq bilan  $SA$  kesishib, fazodagi  $A$  nuqtaning perspektivasi  $A_k$  ni hosil qiladi. Berilgan  $A$  nuqtani asosi  $A_0$  ning  $A_{0k}$  perspektivasi  $SA_0$  bilan  $A'_{0k}A_k$  to‘g‘ri chiziqlarining kesishuv nuqtasida bo‘ladi.

## 2 - §. To‘g‘ri chiziqning perspektivasi

To‘g‘ri chiziq perspektivasining hosil bo‘lishini tushunish osonroq bo‘lishi uchun yuqoridagi geometrik apparatni birmuncha soddalashtirib, faqat kartina va undagi gorizont chiziqni hamda bosh nuqta  $R$  ni qoldiramiz (2-shakl, a).




Fazoda  $m_1$  to‘g‘ri chiziq berilgan bo‘lsin. Agar uni kartina tomon davom ettirsak, u kartina bilan  $m_{1k}$  nuqtada kesishadi, deb faraz qilaylik. Bu nuqtani berilgan to‘g‘ri chiziqning kartina izi deb ataymiz va uni  $m_{1k}$  deb belgilaymiz.  $m_1$  da yotgan  $A$

va  $\mathbf{B}$  nuqtalarni ko‘rish nuqtasi  $S$  dan proyeksiyalasak,  $\mathbf{AB}$  kesmaning proyeksiyasi  $\mathbf{m}_{Ik}$  dan chiqqan to‘g‘ri chiziq bo‘lishi tabiiydir. Endi  $\mathbf{m}_I$  ning ustida  $\mathbf{AB}$  yo‘nalishda cheksiz ( $\infty$ ) uzoqlikda yotgan, ya’ni to‘g‘ri chiziqning xosmas nuqtasini koordinata tekisligi  $\mathbf{K}$  ga proyeksiyalash uchun  $S$  dan  $\mathbf{m}_I$  ga parallel o‘tkazishga to‘g‘ri keladi. Bu nurning kartina bilan kesishuv nuqtasini  $\mathbf{m}_\infty$  orqali belgilaymiz.  $\mathbf{m}_\infty$  to‘g‘ri chiziq  $\mathbf{m}_I$  da joylashgan xosmas nuqtaning perspektivasi bo‘ladi va u to‘g‘ri chiziq  $\mathbf{m}_I$  ning tushish nuqtasi deb ataladi.  $\mathbf{m}_I$  ga parallel  $\mathbf{m}_2$  to‘g‘ri chiziqlari olaylik.  $\mathbf{m}_{2k} \mathbf{m}_2$  ning kartina izi bo‘lsin.  $\mathbf{m}_2$  ning tushish nuqtasini yasash uchun  $S$  dan  $\mathbf{m}_2$  ga parallel nur o‘tkazamiz. Bu nur albatta  $\mathbf{Sm}_\infty$  bilan ustma-ust tushadi.  $\mathbf{m}_{2k} \mathbf{m}_\infty$  to‘g‘ri chiziq  $\mathbf{m}_2$  ning pespektivasidir. Demak,  $\mathbf{m}_\infty$  ayni vaqtida  $\mathbf{m}_2$  ning ham tushish nuqtasi bo‘lar ekan. Agar biz  $\mathbf{m}_I$  ga parallel qilib  $\mathbf{m}_3, \mathbf{m}_4, \mathbf{m}_5$  va h.k. to‘g‘ri chiziqlarni o‘tkazsak, ularning tushish nuqtasi ham  $\mathbf{m}_\infty$  bilan ustma-ust tushishini osongina tushunish mumkin. Bundan o‘zaro parallel barcha to‘g‘ri chiziqlar yagona tushish nuqtaga ega, degan xulosaga kelamiz. Kartinaga perpendikulyar joylashgan  $\mathbf{n}_1$  va  $\mathbf{n}_2$  to‘g‘ri chiziqlar u bilan  $\mathbf{n}_{Ik}$  va  $\mathbf{n}_{2k}$  nuqtalarda kesishgan bo‘lsin. Bu to‘g‘ri chiziqlarning tushish nuqtasi bosh nuqta  $\mathbf{P}$  bilan ustma-ust tushadi. Demak, kartinaga perpendikulyar (ya’ni gorizontal) to‘g‘ri chiziqlarning tushish nuqtasi kartina bosh nuqtasi  $\mathbf{P}$  da bo‘lar ekan. 2-shakl, b) da o‘zaro parallel  $\mathbf{m}_I \parallel \mathbf{m}_2$  va  $\mathbf{n}_I \parallel \mathbf{n}_2$  to‘g‘ri chiziqlarning perspektiv tasvirlari keltirildi. Bularidan hamma gorizontal to‘g‘ri chiziqlarning tushish nuqtalari ufq chizig‘ida joylashishini tushunish qiyin emas. Kartinaga  $45^\circ$  burchak ostida joylashgan to‘g‘ri chiziqlarning tushish nuqtalari esa  $\mathbf{D}_1$  va  $\mathbf{D}_2$  larda bo‘ladi.

### 3 - §. Tekislikning perspektivasi


Fazodagi  $\mathbf{Q}$  tekislik o‘zaro kesishuvchi  $\mathbf{m}$  va  $\mathbf{n}$  to‘g‘ri chiziqlari orqali berilgan bo‘lsin (3-shakl, a).  $\mathbf{m}$  ning kartina izi  $\mathbf{m}_k$  bilan  $\mathbf{n}$  ning kartina izi  $\mathbf{n}_k$  ni birlashtirsak,  $\mathbf{Q}$  tekislikning kartina izi –  $\mathbf{Q}_k$  ga ega bo‘lamiz.  $S$  dan  $\mathbf{m}$  va  $\mathbf{n}$  ga parallel o‘tkazib, ularning tushish nuqtalari  $\mathbf{m}_\infty$  va  $\mathbf{n}_\infty$  ni birlashtiruvchi to‘g‘ri chiziq albatta  $\mathbf{Q}_k$  ga parallel bo‘ladi va u  $\mathbf{Q}$  tekislikning tushish chizig‘i deb atalib,  $\mathbf{Q}_\infty$  orqali belgilanadi. 3-shakl, b) da frontal joylashgan kartinada  $\mathbf{Q}$  tekislikning tasvirlanishi ko‘rsatilgan.


Shunday qilib, tekislikning tushish chizig'ini hosil qilish uchun ko'rish nuqtasi  $S$  orqali unga parallel tekislik o'tkaziladi va uning kartina bilan kesishuv chizig'i yasaladi.



Mashqlar.

Yuqorida berilgan ma'lumotlarga asoslanib, 4-shakl, a, b, v, g larda tasvirlangan to'g'ri chiziqlarning hamda 5-shakl, a, b, v, g larda tasvirlangan tekisliklarning fazoviy holatlari aniqlansin.






#### 4 - §. PERSPEKTIVADA POZITSION MASALALAR YECHISH

##### 4.1. Ikki tekislikning kesishuv chizig‘ini yasash

Ikki tekislik o‘zaro to‘g‘ri chiziq bo‘yicha kesishib, uni yasash uchun ikki tekislikka umumiy bo‘lgan ikki nuqtani aniqlash kifoyadir. 6-shakl, a) da kartina izlari  $M_k$  va  $N_k$  hamda tushish chiziqlari  $M_\infty$  va  $N_\infty$  orqali berilgan  $M$  va  $N$  tekisliklarda mos ravishda yotgan  $ABCD$  va  $q$  tekis shakllar tasvirlangan.  $M$  va  $N$  tekisliklarning kartina izlari  $M_k$  va  $N_k$   $I_k$  nuqtada, ularning tushish chiziqlari  $M_\infty$  va  $N_\infty$  esa  $I_\infty$  nuqtada kesishmoqda. Kesishuv chizig‘ini yasash uchun  $I_k$  bilan  $I_\infty$  ni tutashtirish kifoyadir.  $M$  va  $N$  tekisliklarda yotgan tekis shakllar  $EF$  to‘g‘ri chiziq kesmasi bo‘yicha kesishadi, chunki  $I$  to‘g‘ri chiziqning  $EF$  qismi ular uchun umumiyyidir. Endi bu shakllarning ko‘rinar va ko‘rinmas qismlarini aniqlash zarur.

Buning uchun  $I_k$  bilan  $I_\infty$  orasida bosh nuqtani tanlab, undan fikran kartinaga perpendikulyar chiqaramiz va unga kartinadan ixtiyoriy masofada bosh masofani qo‘yamiz, ya’ni ko‘rish nuqtasi  $S$  ning holatini taxminan belgilaymiz. «Topilgan»  $S$  nuqtadan  $I_\infty$  ga to‘g‘ri chiziq yo‘naltiramiz. Ana shunda biz tekisliklarning  $M_k M_\infty$  va  $N_k N_\infty$  deb belgilangan qismlari orasida qolamiz va unga mos ravishda  $ABCD \subset N$  va doira  $q \subset M$  shakllarning ko‘rinar va ko‘rinmas qismlarini aniqlaymiz. 6-shakl, b) da o‘zaro gorizontal to‘g‘ri chiziq bo‘yicha kesishuvchi  $T$  va  $Q$  tekisliklari berilib, ularga mos ravishda oid  $MNFD$  va  $ABCD$  tekis shakllar tasvirlangan.  $T$  va  $Q$  tekisliklarini kesuvchi yordamchi vertikal  $R$  tekislikni o‘tkazamiz. Bu tekislik o‘zining kartina izi  $R_k$  va tushish chizig‘i  $R_\infty$  orqali berilgan.  $R$  tekislik bilan  $Q$  tekislikning kesishuv chizig‘i  $I(I_k I_\infty)$  va  $T$  bilan kesishuv chizig‘i  $2(2_k 2_\infty)$  ni




yasaymiz. Kesishuv chiziqlari  $\mathbf{1}$  va  $\mathbf{2}$  o‘zaro  $K$  nuqtada kesishadi.  $K$  nuqta  $T$  va  $Q$  ga umumiy nuqta bo‘lganligi uchun ularning kesishuv chizig‘i  $K$  orqali gorizontal

yo‘nalishda o‘tkaziladi.  $EE_1$ ,  $ABCD$  va  $MNFL$  to‘rtburchaklarning kesishuv chizig‘idir. Ko‘rinar va ko‘rinmas qismlarni aniqlash uchun ko‘rish nuqtasini  $T_\infty$  va  $Q_\infty$  oralig‘ida kartinadan ma’lum masofada tanlaymiz hamda undan tekisliklar tomon qarasak,  $Q_kEE_1T_k$  tomonlar ichida qolamiz va shakllarning ko‘rinar-ko‘rinmas qismlarini osongina aniqlaymiz.

#### 4.2. To‘g‘ri chiziq bilan tekislikning kesishuv nuqtasini aniqlash

To‘g‘ri chiziq bilan tekislikning kesishuv nuqtasi qo‘yidagicha aniqlanadi:

- berilgan to‘g‘ri chiziq orqali yordamchi tekislik o‘tkaziladi;
- bu tekislik bilan berilgan tekislikning kesishuv chizig‘i yasaladi;
- yasalgan kesishuv chiziq bilan berilgan to‘g‘ri chiziqning kesishuv nuqtasi belgilanadi.



7-shakl, a) da  $l$  to‘g‘ri chizig‘i ( $l_k$ ,  $l_\infty$ ) va  $Q$  tekisligi ( $Q_k$ ,  $Q_\infty$ ) berilgan.  $l$  orqali ixtiyoriy yo‘nalishda  $L$  tekisligini o‘tkazamiz. Buning uchun  $l_\infty$  orqali tekislikning tushish chizig‘i  $L_\infty$  ni,  $l_k$  orqali unga parallel qilib  $L_k$  ni o‘tkazamiz. So‘ngra  $Q$  bilan


**L** ning kesishuv chizig‘i  $\mathbf{I}(\mathbf{I}_k \mathbf{I}_\infty)$  ni o‘tkazamiz. **I** bilan **l** chiziq **K** nuqtada kesishib, izlangan nuqtani hosil qiladi. **l** to‘g‘ri chiziqning ko‘rinar-ko‘rinmas qismlarini aniqlash uchun oldingi masalalardagi usuldan foydalanamiz va  $\mathbf{l}_k$  ning  $\mathbf{Q}_k$  dan ancha yuqorida ekanini payqaymiz va  $\mathbf{K}\mathbf{l}_k$  qismni ko‘rinarli qilib tasvirlaymiz.

7-shakl, b) da vertikal  $\mathbf{AB}$  to‘g‘ri chiziq o‘zining  $N$  dagi asosi  $\mathbf{A}_I = \mathbf{B}_I$  bilan va tekislik esa kartina izi  $\mathbf{T}_k$  hamda tushish chizig‘i  $\mathbf{T}_\infty$  bilan berilgan.  $\mathbf{AB}$  bilan **T** ning kesishuv nuqtasini topish talab qilinsin. Buning uchun  $\mathbf{AB}$  orqali vertikal **L** tekisligini o‘tkazamiz. **L** tekisligining tushish chizig‘i  $\mathbf{L}_\infty$  ni ixtiyoriy joyda o‘tkazamiz. U tekislik  $N$  bilan  $\mathbf{I}_\infty \mathbf{A}_I = \mathbf{B}_I$  chizig‘i bo‘yicha kesishadi.  $\mathbf{I} \subset \mathbf{A}_I \mathbf{B}_I$  chizig‘i kartina asosi  $\mathbf{kk}$  ni  $\mathbf{I}_k$  da kesib, uning kartina izini hosil qiladi. **L** ning  $\mathbf{L}_k$  kartina izi  $\mathbf{I}_k$  orqali vertikal yo‘nalishda o‘tadi va  $\mathbf{T}_k$  ni  $\mathbf{2}_k$  nuqtada kesadi.  $\mathbf{2}_k$  bilan  $\mathbf{2}_\infty (\mathbf{T}_\infty \cap \mathbf{L}_\infty)$  ni birlashtirib, **L** bilan **T** ning kesishuv chizig‘iga ega bo‘lamiz.  $\mathbf{AB}$  to‘g‘ri chiziq  $\mathbf{2}$  to‘g‘ri chiziq bilan **K** nuqtada kesishib,  $\mathbf{AB}$  ning **T** bilan kesishuv nuqtasini hosil qiladi.


### Mashqlar.

1-jadvalda ikki tekislikning kesishuv chizig‘ini yasashga doir; 2-jadvalda to‘g‘ri chiziq bilan tekislikning kesishuv nuqtasini topishga doir misollar berilgan. Bu shartlar bajarilgandan so‘ng shakllarning ko‘rinar-ko‘rinmas qismlari aniqlansin.


Jadral 1




Jadval 1 (davomi)




Jadral 1 (davomi)



Sadržaj 2



Jadral 2 (davomi)



## 5 - §. PERSPEKTIVADA METRIK MASALALARINI YECHISH

Burchak, masofa, kesma yoki tekis shaklning haqiqiy kattaligini topishga doir masalalar metrik masalalar doirasiga kiradi. Bunday kattaliklarning haqiqiy kattaligi perspektivada, ularni kartina bilan ustma-ust qo'yish yoki unga parallel proyeksiyalash yordamida aniqlanadi.

8-shaklda asosi **1234** narsalar tekisligida yotgan uchburchak prizma **123456** tasvirlangan bo'lib, uning **1** uchi kartinaga tegib turibdi. **kk** to'g'ri chiziq kartina tekisligi bilan **N** ning kesishuv chizig'idir. Operatsiya

1-masala. Prizmaning pastki to'g'ri burchakli **1234** asosi kvadrat bo'lsin. Masalani yechish uchun kesmaning haqiqiy uzunligini aniqlashda bajariladigan operatsiyalarni teskari yo'nalishda bajarishga to'g'ri keladi. Kartina asosi **kk** ga unda yotgan **1** nuqtadan boshlab o'ng va chap tomonlarga bir xil **a** masofa o'lchab qo'yiladi hamda **2<sub>I</sub>** va **4<sub>I</sub>** nuqtalar aniqlanadi. **n<sub>∞</sub>S** ni ufq chizig'i atrofida aylantirib, kartina ustiga qo'yamiz, ya'ni bosh nuqta **R** dan vertikal to'g'ri chiziq o'tkazib, unga bosh masofani o'lchab qo'yamiz. Hosil bo'lgan **S** ko'rish nuqtasining kartinaga yotqizilgan holatidir. Endi **S** ni **n<sub>∞</sub>** bilan birlashtirib, **n<sub>∞</sub>** dan **n<sub>∞</sub>S** radiusda yoy chizamiz va uning ufq chizig'i bilan kesishuv nuqtasini **f<sub>∞</sub>** cheksiz bilan belgilaymiz. **f<sub>∞</sub>** biz aniqlamoqchi bo'lgan **14** to'g'ri chiziqlari kartinaga proyeksiyalovchi burish vatarlarining tushish nuqtasidir. **f<sub>∞</sub>** ni **4<sub>I</sub>** bilan birlashtirsak, u bilan kesishib, **4** nuqtani beradi. **12** kesmaning perspektivasi ham shunday aniqlanadi. Aniqlangan **4** nuqta **m<sub>∞</sub>** bilan, **2** nuqta **n<sub>∞</sub>** bilan birlashtiriladi va ular o'zaro kesishib, **3** nuqtani beradi. Bajarilgan bu operatsiyalar hosil bo'lgan **1234** kvadratning perspektivasi ekanligini ta'minlaydi.

2-masala. **14** va **15** to'g'ri chiziqlari orasidagi burchakning haqiqiy kattaligi aniqlansin. **415** burchak ko'rish nuqtasi **S** dan **14** va **15** larga o'tkazilgan parallelar orasidagi burchak bilan o'lchanadi. Uning haqiqiy kattaligi **Sn<sub>∞t<sub>∞</sub></sub>** uchburchakni **n<sub>∞t<sub>∞</sub></sub>** atrofida aylantirib, kartina ustiga qo'yish orqali topiladi. Buning uchun **n<sub>∞S</sub>** ni ufq chizig'iga qo'yib, **S<sub>I</sub>** ni (**S<sub>I</sub>f<sub>∞</sub>** bilan ustma-ust tushadi) aniqlaymiz, hosil bo'lgan **n<sub>∞S<sub>It<sub>∞</sub></sub></sub>** burchak talab qilingan **415** burchakning haqiqiy kattaligidir (u  $26^{\circ}$  ga teng ekan).

9-shaklda yana ikki masalaning yechilishi ko'rsatilgan.

3-masala. Tasvirlangan prizmadagi **15** qirraning haqiqiy kattaligi aniqlansin.

Yechilishi. **15** orqali kartinaga perpendikulyar **T** tekisligini o'tkazamiz. Uning  $T_\infty$  tushish chizig'i  $t_\infty$  va **P** orqali o'tadi. **T** ning kartina izi  $T_k$  **I** dan o'tib,  $T_\infty$  ga parallel bo'ladi. **15** ni  $T_k$  ga proyeksiyalovchi vatarlarning nuqtasini topish uchun **P** dan  $T_\infty$  ga perpendikulyar chiqarib, unga bosh masofani o'lchab qo'yamiz va **S** ning kartina bilan ustma-ust tushgan holati **S<sub>1</sub>** ga ega bo'lamiz. Endi  $t_\infty S_1$  ni  $t_\infty$  dan boshlab  $T_\infty$  ga o'lchab qo'yamiz. Hosil bo'lgan  $f_\infty$  nuqta burish vatarlarining tushish nuqtasidir.  $f_\infty$  dan **15** ni  $T_k$  ga proyeksiyalab, uning haqiqiy kattaligi **15<sub>1</sub>** (45 mm) ga ega bo'lamiz.


4-masala. Prizmaning og'ma joylashgan **Q** tomonini (**1265**) kartinaga nisbatan og'ish burchagi aniqlansin.

Yechilishi. **Q** bilan **K** orasidagi ikki yoqlik burchak ko'rish nuqtasi **S** orqali **Q** ga parallel o'tkazilgan tekislik bilan **K** orasidagi burchak orqali o'lchanadi. Shuning uchun **S** orqali **Q** hamda **K** ga perpendikulyar bo'lgan **N** tekisligini o'tkazamiz. U **P** orqali o'tib,  $Q_\infty$  ga perpendikulyar bo'ladi. O'tkazilgan **N** tekislik gorizont tekisligi, kartina va **Q** tekisligiga **S** dan parallel o'tkazilgan tekisliklarni **SPq<sub>\infty</sub>** uchburchak bo'yicha kesadi. Bu uchburchakni **Pq<sub>\infty</sub>** tomoni atrofida aylantirib, kartina ustiga qo'yamiz. Buning uchun **P** dan  $N_\infty$  ga perpendikulyar chiqarib, unga bosh masofa **PS** ni o'lchab qo'yamiz. Hosil bo'lgan **S<sub>2</sub>** ni  $q_\infty$  bilan birlashtiramiz.  $\angle S_2 q_\infty P = \varphi$  izlangan burchakdir.

10-shaklda to'g'ri chiziq bilan tekislikning kesishuv nuqtasini topish hamda **b** va **l** to'g'ri chiziqlar orasidagi burchakni aniqlash ko'rsatilgan.

1-masala. Shartli antennani ushlab turgan vertikal xoda **b** ning qiya joylashgan **Q** tomon bilan kesishuv nuqtasi aniqlansin. **b** xodaning **H** dagi asosi **B<sub>0</sub>** bilan berilgan.

Echilishi. **b** orqali prizmaning uchburchak asoslariga parallel qilib vertikal tekislik o'tkazamiz. U prizmaning pastki tomoni yotgan narsalar tekisligi **H** ni  $n_\infty B_0 A$  orqali, **Q** ni esa **Al<sub>\infty</sub>** orqali kesadi. **b** bilan **Al<sub>\infty</sub>** ning kesishgan **B** nuqtasi **Q** ning **b** bilan kesishuv nuqtasidir.



2-masala.  $l$  bilan  $b$  orasidagi burchakning haqiqiy kattaligi aniqlansin.

Yechilishi. Bu burchak ko‘rish nuqtasi  $S$  dan  $l$  ga hamda  $b$  ga parallel o‘tkazilgan to‘g‘ri chiziqlar orasidagi burchak bilan o‘lchanadi. Buning uchun  $S n \cdot l \infty$  uchburchakni  $n \cdot l \infty$  atrofida aylantirib, kartina bilan ustma-ust qo‘yamiz, ya’ni  $n \cdot S$  ni  $n \infty$  dan boshlab ufq chizig‘iga o‘lchab qo‘yamiz.  $S$  ning yangi holati  $S_I$  dan vertikal chiziq o‘tkazamiz va u bilan  $S_I l \infty$  orasidagi burchakni o‘lchaymiz. U  $57^\circ$  ga teng ekan.

11-shaklda o‘zaro kesishuvchi ikki uchburchak prizma tasvirlangan.

1-masala.  $Q$  va  $N$  tomonlarning kesishuv chizig‘i yasalsin.

Yechilishi.  $Q$  ning tushish chizig‘i  $Q \infty$  unda yotgan  $l$  va  $m$  chiziqlarning tushish nuqtalari  $l \infty$  va  $m \infty$  orqali o‘tgan.  $N$  ning tushish chizig‘i esa unda yotgan  $38$  va  $8n \infty$  qirralarning tushish nuqtalari  $q \infty$  va  $n \infty$  orqali o‘tgan. Tushish chiziqlari  $Q \infty$  va  $N \infty$  o‘zaro  $2 \infty$  da kesishib, tomonlar kesishuv chizig‘ining tushish nuqtasini beradi. Kesishuv chizig‘iga oid ikkinchi nuqta  $2$  dir ( $1m \infty \cap 3n \infty = 2$ ). Topilgan bu  $2$  va  $2 \infty$  nuqtalarni birlashtiramiz.  $2A$  qism  $Q$  va  $N$  yoqlarning kesishuv chizig‘idir.



2-masala.  $q(38)$  va  $t(87)$  qirralar orasidagi burchakning haqiqiy kattaligi aniqlansin.

Yechilishi.  $q$  va  $t$  orasidagi burchak  $S$  dan ularga parallel o‘tkazilgan  $Sq \infty$  va  $St \infty$  to‘g‘ri chiziqlarning orasidagi burchak bilan o‘lchanadi. Demak,  $Sq \cdot t \infty$  uchburchakni  $q \cdot t \infty$  atrofida aylantirib,  $K$  ustiga qo‘yilsa,  $S_I$  uchidagi burchak izlangan burchakning haqiqiy kattaligi bo‘ladi. Buning uchun  $m \cdot S$  ( $S$  oldingi misollarda qilinganday kartinaga qo‘yildi) ni ufq chizig‘i ustiga  $m \infty$  dan boshlab o‘lchab qo‘yib, hosil bo‘lgan  $S_I$  ni  $q \infty$  va  $t \infty$  bilan birlashtiramiz. Javob:  $64^\circ$ .

12-shaklda ham shu prizmalar tasvirlangan.

1-masala.  $M$  va  $N$  yoqlar orasidagi ikki yoqli burchakning haqiqiy kattaligi aniqlansin.

Yechilishi. Ikki tekislik orasidagi ikki yoqli burchak ularga perpendikulyar o‘tkazilgan tekislik bilan berilgan tekisliklarning kesishuv chiziqlari orasidagi chiziqli burchak bilan o‘lchanadi.  $M$  va  $N$  tekisliklari  $n$  bo‘lgan to‘g‘ri chizig‘i ( $M \infty \cap N \infty = n \infty$ ) bo‘yicha kesishmoqda.  $n$  to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar tekislik  $M$  va



$N$  larga perpendikulyar bo‘ladi, chunki  $n=M\cap N$  dir.  $n$  to‘g‘ri chiziqqa perpendikulyar tekislik o‘tkazamiz. Buning uchun ko‘rish nuqtasini kartina bilan jipslashtirib,  $S$  ni aniqlaymiz.  $S$  nuqtadan  $n \in S$  ga perpendikulyar o‘tkazamiz. U ufq chizig‘ini  $m_\infty$  da kesadi, chunki prizmalarning yon qirralari o‘zaro perpendikulyardir.  $m_\infty$  orqali  $n$  ga perpendikulyar tekislikning tushish chizig‘i  $L_\infty$  ni o‘tkazamiz ( $L_\infty \perp hh$ ). Endi  $m_\infty S$  ni  $hh$  ustiga qo‘yib  $S_1$  ni hosil qilamiz.  $S_1 q_\infty$  va undan o‘tgan vertikal to‘g‘ri chiziq orasidagi burchak talab qilingan burchakdir.

2-masala. 78 qirraning haqiqiy kattaligi topilsin.

Yechilishi. 78 orqali kartinaga perpendikulyar  $T$  tekisligini o‘tkazamiz.  $T_\infty$  bosh nuqta  $P$  va  $t_\infty$  orqali,  $T_k$  esa unga parallel ravishda  $t_k$  orqali o‘tadi. 78 ning kartina izi  $t_k$  ni aniqlash uchun kesma orqali vertikal tekislik o‘tkazamiz. U  $N$  tekislikni  $m_\infty S$  bo‘yicha  $K$  tekislikni esa  $S$  dan chiqqan vertikal to‘g‘ri chiziq bo‘yicha kesadi. Bu vertikal chiziq 78 bilan kesishib, uning kartina izi  $t_k$  ni hosil qiladi. Endi 78 ni  $t_k$  atrofida aylantirib,  $T_k$  ning ustiga qo‘yamiz va uning haqiqiy kattaligi  $7_1 8_1$  ga ega bo‘lamiz. Aylantirishni burish vatarlari yo‘nalishida proyeksiyalash orqali amalga oshiramiz. Buning uchun  $P$  dan  $T_\infty$  ga perpendikulyar chiqarib, unga bosh masofani o‘lchab qo‘yamiz va  $S$  ning kartinaga yotqizilgan holati  $S_2$  ga ega bo‘lamiz.  $t_\infty S_2$  ni  $t_\infty$  atrofida aylantirib,  $T_\infty$  bilan kesishtiramiz. Hosil bo‘lgan nuqta  $g_\infty$  burish vatarlarining tushish nuqtasi bo‘ladi. Endi  $g_\infty$  dan 78 ni  $T_k$  ga proyeksiyalab, unda  $7_1 8_1$  kesmani, ya’ni 78 ning haqiqiy kattaligini yasaymiz.


13-shaklda qopqog‘i ma’lum burchakka ochilib turgan konserva bankasining perspektivasini yasash ko‘rsatilgan. Konserva bankasining perspektivasini yasash ikki qismdan iborat. Birinchi konserva bankasining perspektivasini, ikkinchisi esa ma’lum burchakka ochilgan uning qopqog‘i tasvirini yasashdir. Lekin bularning har ikkalasi ham aylananing perspektivasini yasash bilan bog‘liq. Aylanalar ularga tashqi chizilgan kvadrat yasash orqali yasaladi.

Kartinaning asosi  $kk$  ga  $O$  markazdan yarim kvadrat **1234** ni chizib, uning yarim diagonallarini o‘tkazamiz hamda unga urinma qilib  $O$  markazdan yarim aylana chizamiz. Diagonallar kartinaga nisbatan  $45^\circ$  burchak hosil qilganligi tufayli ularning tushish nuqtalari  $D_1$  va  $D_2$  da bo‘ladi. Kvadratning **13** va **24** tomonlari  $K$  ga


perpendikulyar bo‘lganligi uchun ularning tushish nuqtasi  $P$  da bo‘ladi. Shuning uchun  $2$  ni  $D_2$  bilan birlashtiramiz. U to‘g‘ri chiziq  $1P$  ni  $3$  nuqtada,  $OP$  ni  $O_1$  nuqtada kesib o‘tadi.  $3$  va  $O$  nuqtalardan gorizontal chiziqlar o‘tkazamiz. Natijada kvadrat perspektivasi tomonlarida aylanaga oid to‘rtta nuqtaga ega bo‘lamiz. So‘ngra diagonallar perspektivasida aylanaga oid yana to‘rtta, umuman  $8$  ta nuqtaga ega bo‘lamiz (bular yasashlardan tushunarlidir).  $8$  ta nuqta orqali aylananing perspektivasi – ellipsni o‘tkazamiz. Xuddi shu usul bilan  $IA$  balandlikda ikkinchi ellipsni, ya’ni konserva bankasining yuqorigi asosi perspektivasini yasaymiz va ularga vertikal urinmalar o‘tkazib, konserva bankasining perspektivasiga ega bo‘lamiz.

Konserva bankasining qopqog‘ini ixtiyoriy burchakka ochamiz. Buning uchun  $P$  dan o‘tgan vertikal chiziqda  $f_\infty$  ni tanlaymiz va undan yuqorigi kvadrat perspektivasi ( $B$  va  $E$ ) uchlari orqali to‘g‘ri chiziqlar o‘tkazamiz. Endi  $f_3$  ga  $B$  dan boshlab aylana diametri  $34$  ni o‘lhab qo‘yish zarur. Buning  $f_3$  orqali  $K$  ga perpendikulyar  $T$  tekisligini o‘tkazamiz. Uning tushish  $T_\infty$  chizig‘i  $f_\infty P$  orqali, kartina izi  $T_k$  esa  $f_k$  orqali unga parallel o‘tadi.  $f_\infty D_2$  radius bilan  $f_\infty$  dan yoy chizib, uning  $T_\infty$  bilan kesishgan nuqtasi  $q_\infty$  ni hosil qilamiz.  $q_\infty$  burish vatarlarining tushish nuqtasi bo‘ladi. Endi  $q_\infty B$  ning  $T_k$  bilan kesishuv nuqtasi  $B_1$  dan boshlab  $T_k$  ga  $D=34$  masofani o‘lhab qo‘yib,  $S_1$  nuqtani belgilaymiz.  $S_1$  ni  $q_\infty$  bilan birlashtirib, uning  $Bf_k$  bilan kesishuv nuqtasi  $S$  ni belgilaymiz.  $S$  orqali gorizontal o‘tkazib,  $f_\infty E$  da  $D$  nuqtani belgilaymiz. Hosil bo‘lgan  $SBED$  to‘rburchak ichiga ellips chizish gorizontal ellipslarni chizishdan farq qilmaydi.

14-shaklda qopqog‘i ma’lum burchakka ochilgan chemodanning perspektivasi berilgan. Unda chemodan korpusining perspektivasi berilgan deb hisoblangan. Agar  $O$  markazdan chemodan yon tekisligida  $OB$  radiusda aylana chizsak, u  $B$  nuqtasini ochilish jarayonidagi traektoriyasi bo‘ladi.  $Bl_\infty$  ga  $O$  dan boshlab  $BO$  ni o‘lhab qo‘yish uchun  $O$  orqali gorizontal o‘tkazamiz. Chap tomondagи  $O2$  (u ixtiyoriy kesma) ni o‘ng tomoniga o‘lhab qo‘yamiz ( $01=02$ ). So‘ngra  $V1$  to‘g‘ri chizig‘ini o‘tkazamiz. U ufq chizig‘ini  $S_1$  da (ixtiyoriy nuqtada) kesadi va uni  $q_\infty$  bilan belgilaymiz.  $q_\infty$  ni  $2$  bilan birlashtibirib, uning  $BO$  ni kesgan nuqtasi  $D$  ni belgilaymiz



14-shakl



13-shakl

**(OD=OB).** Endi **O** dan chiqqan vertikal chiziqqa **OB** ni o'lchab qo'yamiz. Buning uchun vertikal chiziqqa proyeksiyalovchi burish vatarlarining tushish nuqtasi  $t_\infty$  ni topamiz va undan **BO** ni **B** dan chiqqan vertikal chiziqqa proyeksiyalab, **E** nuqtasini hosil qilamiz.  $l_\infty E$  to'g'ri chiziqdan chiqqan vertikal chiziqni **S** nuqtada kesib, ellipsning yuqori nuqtasini hosil qiladi. Ellipsni yasash va qopqoqni yasash chizmadan tushunarlidir.

3-jadvalda berilgan masalalarini quyida keltirilgan shartlar bo'yicha yeching:

I. a shaklda:

1. **1234** kvadrat bo'lsin.
2. **t** va **n** to'g'ri chiziqlar orasidagi burchak  $40^\circ$  bo'lsin.
3. **Q** tekislikning kartinaga nisbatan og'ish burchagi topilsin.
4. **15** kesmaning haqiqiy uzunligi topilsin.

II. b shaklda:


1. **b** to'g'ri chiziqning **Q** tekislik bilan uchrashgan nuqtasi topilsin.
2. **b** va **l** to'g'ri chiziqlar orasidagi burchak aniqlansin.
3. **Q** va **N** tekisliklarning o'zaro kesishgan chizig'i topilsin.
4. **q** va **t** to'g'ri chiziqlar orasidagi burchak aniqlansin.
5. **N** va **M** tekisliklar orasidagi burchak aniqlansin.
6. **78** kesmaning haqiqiy uzunligi aniqlansin.

III. v shaklda:

Qutichaning qopqog'i  $120^\circ$  ga ochilsin.

IV. g shaklda:

Konserva bankasining qopqog'i  $75^\circ$  ga ochilsin.



## ***ADABIYOT***

1. Murodov Sh. va boshqalar. «Chizma geometriya kursi». Toshkent., «O‘qituvchi», 1988 yil.
2. Rahmonov I. Perspektiva. T., «O‘qituvchi», 1993 yil.
3. Odilov P.O. Perspektiva. Toshkent, TDPU rizografi 2000 yil.
4. Odilov P.O. Perspektivada pozitsion va metrik masalalar yechish. Toshkent, TDPU rizografi 1999 yil.
5. Abduraxmanov A. Perspektiva (ish daftari). “TDPU rizografi” 2005
6. Макарова М.Н. Перспектива. М., «Просвещение», 1989.
7. Климухин А.Г. Начертательная геометрия. М., «Стройиздат», 1973.
8. Яблонский А.Г., Линейная перспектива по плоскости, М., «Просвещение», 1966.

## ***MUNDARIJA***

So‘z boshi.....	3
1-§. Perspektivaning geometrik apparati .....	4
2-§. To‘g‘ri chiziqning perspektivasi.....	5
3-§. Tekislikning perspektivasi.....	6
4-§. Perpektivada pozitsyon masalalar yechish.....	8
4.1. Ikki tekislikning kesishuv chizig‘ini yasash.....	8
4.2. To‘g‘ri chiziq bilan tekislikning kesishiuv nuqtasini aniqlash.....	10
5-§. Perspektivada metrik masalalarni yechish .....	17
Adabiyot.....	28
Mundarija.....	28